



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna

SamDCHTI ilmiy xodimi

## O'ZBEKISTON SSRDA XOTIN-QIZLAR MAORIFINING O'RGANILISHI

### Аnotatsiya

Ushbu maqolada XX asrning 20-30 yillaridagi xotin – qizlar ta'limining joriy qilinishi, ulardan kadrlar tayyorlanishi va bu jarayonga ta'sir ko'rsatgan ichki omillar to'g'risida bayon qilinadi. Shuningdek, mazkur jarayonni sovet davri tarixshunosligida yoritilishi, masalaning biryoqlama talqin etilishi, mustaqillik davrida muammoning xolisona yoritilishi, sovet davri adabiyotlari bilan mustaqillik davri tadqiqotlarining taqqoslanishi haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Xotin – qizlar ta'limi, Hujum harakati, Maorif, Muammo tarixshunosligi, Muammoning yangi tarixdagi xolisona talqini.

**Kirish:** tarixiy faktlar shuni ko'rsatadiki, tarixda Turon, Turkiston, Movorounnahr nomlari bilan shuhrat qozongan diyorumizda ilm – fan va tarbiya masalalariga alohida e'tibor berib kelingan. Shu sababdan ham mamlakatimiz tarixida bir necha bor ilmiy yuksalishlar yuz bergan. Ilmiy ixtirolar amalga oshirilib, amaliyotga tadbiiq etilgan. Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Turkiston diyori XIX asrda ichki urushlar, an'anaviy jamiyatning salbiy ta'siri va diniy mutaasiblik oqibatida tashqi dunyodan uzilib qolgan bo'lsada, ilmiy hayot butunlay tuxtab qolmagan. XIX asrda ham Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent madrasalarga xorijiy talabalarning kelib tahsil olishi fikrimizning yaqqol isbotidir<sup>1</sup>. Maktablarda, O'rta va Oliy ta'lim tizimi hisoblangan madrasalarda shariatdan kelib chiqqan holda asosan o'gil bolalar tahsil olgan. Lekin bu xotin- qizlar ta'limi mavjud bo'lmagan degan fikrni keltirib chiqarmaydi.

<sup>1</sup>Маттиев У.Б. XIX аср ўрталари - XX аср бошларида Туркистонда афгон фукарolari тарихи. Диссертация автореферати. Самарқанд.2022.-Б.15.

O'rta asrlarga oid ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida xotin qizlar ta'limiga ham alohida e'tibor berilgan. Yoinki, ularning hech bo'lmaganda, boshlang'ich ta'lim olishiga sharoit yaratib berilgan. Musulmon shariati qoidalariga ko'ra, qizlar alohida o'qitilib, ularga asosan adabiyot, she'riyat, tarix va qo'shimcha ravishda axloq, pokizalik va ruzg'or tutish sirlari o'rgatilib kelingan. Tarixiy tadqiqotlarda aniqlanishicha, xotin-qizlardan oliy darajali mutaxassis tayyorlashga asoslangan oliy ilm dargohlari, ya'ni, ayollar madrasalari bo'lmagan. Lekin ayolni yuksak darajada e'zozlagan xalqimiz ularning oliy darajada yoki cheklangan darajada bo'lsada, bilim olishlari uchun uy sharoitida imkoniyat yaratib bergan degan ilmiy haqiqat mavjud. Dilshodi Barno, Anbar Otin, Jahon otin kabi olim ayollar faoliyati fikrimiz isbotidir. Sovet davri tarixshunosligi yoki xorijiy tarixshunoslikda Turkistonda xotin – qizlar ta'limi bo'lmagan degan fikrlar sababli o'rganilayotgan muammo tarixchilardan yangi va shu bilan birgalikda, ilmiy xulosalarga asoslangan tadqiqotlarni talab etadi.

**Metodlar:** mavzu yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar jarayonida tizimlashtirish, tahlil etish, qiyosiy tahlil etish usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, maorif tizimini sulolalar ketma - ketligida o'rganish, ularning manbaviy asoslarini tahlil etish, davriylik nuqtai - nazaridan qiyoslash, tadqiqot yuzasidan aniq va ilmiylik darajasi yuqori bo'lgan xulosajar olish imkonini beradi. Mamlakatimizning o'tmishida hukmronlik qilgan sulolalarning ta'lim islohotlari nima maqsadda o'tkazilganligi, bu islohotlarda xotin – qizlar ta'limiga o'rin ajratilgan yoki jarayon e'tibordan chetda qolganligi va buning o'ziga xos sabablari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili:** Tadqiqotning davriylik nuqtai- nazaridan ham korinib turibdiki, muammoga daxldor adabiyotlarni asosan, sovet davri va mustaqillik davri adabiyotlari tashkil etadi va sovet davri adabiyotlari tahlilidan anglashilgan jihatlardan biri shuki, xotin – qizlarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga ko'maklashish, ularning teng huquqliligini ta'minlash asosida jamiyat hayotida arzon ishchi kuchini ta'minlash maqsadi mavjudligini ko'rsatib beruvchi ma'lumotlar va ularning tahlillari ko'rsatilgan. Ulardan sharq ayollariga xos bo'lmagan kadrlar tayyorlash ( masalan traktorchilik) asosida milliy mentalitetga zarba berishga harakat qilinganligi va aksar holatda buning uddasida chiqilganligi aniqlangan. Lekin bu ma'lumotlar asosida xotin – qizlar maorifi asosida ulardan o'qituvchi, hamshira, bog'cha xodamlari kabi sohalar mutaxassislarini tayyorlanganligini nazardan qochirmaslik lozim.

**Asosiy qism:** Sovet davrida xotin – qizlarni “ozodlikka chiqarish” masalasi asosiy masalalardan biri sifatida kun tartibiga qo'yildi. Bu kabi masalalar dastlab jadidlarning dasturida qayd etilib, birinchi navbatda ularni ta'lim jarayoniga jalb qilish va shu asosda ularni jamiyatning teng huquqli a'zolariga aylantirish rejasi mavjud edi. Jadidlarning fikricha inson uqib ta'lim olar ekan ularning ongi, dunyoqarashi usib boradi va insoniyat tug'ilgandan boshlab teng huquqli ekanligini tushunib yetadi. Bu esa ayollarni jamiyatning teng huquqli a'zosiga aylantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi lozim edi.

Sovetlar xotin – qizlar tengligi g'oyasini ilgari surar ekan, uzlarining bu maqsadlarini amalga oshirishda turli vositalardan niqob sifatida foydalandi. Birinchi navbatda ularning ta'lim olishiga e'tibor qaratib, xotin – qizlar maktablari, ayollar klublari va turli madaniy muassasalarni tarmog'ini kengaytirishga harakat qildi. Xotin-qizlarni “ozodlikka chiqarish” harakati ularni iqtisodiyotga, madaniyatga va ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etish bilan uzviy bog'liqlikda olib borilgan. SHuning uchun ham, xotin-qizlar ahvolidagi tarixiy negizlarini, mahalliy xalq mafkurasini, uni o'zgartirish yo'llarini, xotin-qizlarning sanoatdagi, qishloq



xo'jaligidagi mehnati ahamiyatini ilmiy o'rganishga e'tibor qaratildi. SHu maqsadda 1927 yil 24 fevral kuni VKP(b)MK O'rta Osiyo byurosi tomonidan xotin-qizlar bo'limi mudirlarining yig'ilishida "Mahalliy tub aholi o'rtasidagi eski turmush tarziga qarshi kurash ishini ilmiy asoslash" haqidagi qarori tasdiqlandi. 1927 yil 14 martda O'rta Osiyo byurosi xotin-qizlar "ozodligi" bilan bog'liq muammolarni ilmiy o'rganish haqida qaror qabul qildi. Bu masalani ilmiy o'rganishga mutaxassis kadrlarning etishmasligi bois, na faqat tarixchi, iqtisodchilar balki o'lkashunoslar va yozuvchilar ham jalb qilindi. Natijada O'lka xotin-qizlar bo'limi qoshida 25 kishidan iborat matbuot sho'basasi tashkil qilindi. SHO'baning maqsadi – iqtidorli mutaxassislarni xotin-qizlar ahvolini o'rganishga yo'naltirishdan iborat edi<sup>2</sup>.

Hujum harakati davrida (1927-1928) ayollar savodsizligini tugatish maqsadida 32 ta savodsizlik kurslari tashkil etildi. Keyinchalik bu raqam faqat Quqonning uzida 75 taga, Toshkentning "eski shahar" qismida 35 taga etqazildi. Natijada Toshkentning uzida 1409 nafar ayol savodsizlik kurslariga qamrab olindi<sup>3</sup>. Keyinchalik ularning bilim va malakasini oshirish maqsadida oiliy ta'lim muassasalari ham tashkil etila boshlandi. 1919 yilda Toshkentda ochilgan "Xotin qizlar bilim yurti" fikrimiz dalilidir<sup>4</sup>.

Farg'ona vodiysidagi ayollarga munosabat va ularning ma'orifini yuksaltirish masalalari S.B. Shadmanova tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Uning tadqiqotlarida Farg'onada xotin – qizlar ta'limining yo'lga qo'yilishi va undan ko'zlangan maqsadlar yoritib berilgan. Uning yozishicha, xotin – qizlar savodsizligini tugatish kurslari, klublar, bilim yurtlar va turli xarakterdagi madaniy- ma'rifiy muassasalarning tashkil qilinishidan maqsad ular orasida sovet hokimiyatini yoyish va urnatilayotgan tuzum asoslarini mustahkamlash edi. Xuddi shunday ma'rifiy muassasalar faoliyati Farg'ona vodiysida ham keng targ'ib qilingan. 1921 yilda Quqonning "Eski shahar" qismida xotin qizlar klubi ochilgan va uning 50 nafar musulmon xotin – qiz a'zolari bo'lgan<sup>5</sup>. Ushbu klub madaniy ma'rifiy muassasadan tashqari sovet hokimiyatini ayollar o'rtasida targ'ib qilishning qulay vositasi ham edi. Xuddi shu holat T.R. Shadmanov tadqiqotlarida ham o'z ifodasini topgan<sup>6</sup>.

Djurayeva N. fikriga ko'ra, xotin-qizlarga nisbatan sovetlar siyosatini uch asosiy bosqichga ajratish mumkin:

1. 1917—1930 yillar. Budavrda xotin-qizlar «ozodligi» hamda erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlash sovet davlatining rasmiy mafkuraviy vazifasi etib e'lon qilingani holda, ishlab chiqarish sohasida xotin- qizlar mehnati ulushini oshirish eng muhim ahamiyat kasb etgan. Xotin- qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi ishtiroki ularning ijtimoiy maqomini belgilovchi asosiy omil deb hisoblangan. Bundan tashqari, o'sha paytda sovet qonunlariga erkaklar bilan ayollarning oila- viy hayotdagi tengligi prinsipining kiritilishi (1917 yil dekabrda «Fuqarolik nikohi tugrisida» va «Nikohni bekor qilish to'g'risida» ikkita dekret) fuqarolik nikohini qonuniylashtirib, ajralish to'g'risidagi masalalarni hal etishda er bilan xotinning huquqlarini ham tenglashtirgan. Xotin- qizlarni ozod qilishga doir sovet dasturining keyingi muhim yo'nalishi erkaklar va ayollarning siyosiy teng huquqligini ta'minlash bo'lib, ayni shu davrdan xotin-

<sup>2</sup> Джўраева Н. Совет даврида хотин – кизларнинг маорифга жалб этилиши. Ўтмишга назар. Тошкент. 2020.9- сон, 4- жилд.-Б.14.

<sup>3</sup> Усмонов К., Содиков М., Бурхонова С., Ўзбекистон тарихи. Тошкент. 2005. -Б.266.

<sup>4</sup> Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. Тошкент. 2007. -Б.56.

<sup>5</sup> Фарғона водийси янги тадқиқотларда. Фарғона. 2012. -Б.292.

<sup>6</sup> Шу манба.-Б.293.



qizlarning jamoat va davlat boshqaruvi idoralarida ishtirok etishi uchun partiyaviy - ma'muriy kvotalarni amalda joriy etish boshlangan. SHuningdek, jinslar tengligi g'oyalarining ro'yobga chiqishi yangi jamiyatning adolatligini isbotlashga qaratilgan edi.

2. 1930—1960 yillar. Mazkur bosqichda ayollar teng huquqliligini ta'minlash sohasida sovet davlati siyosatining konsepsiyasida katta o'zgarishlar yuz bergan. «Xotin-qizlar masalasi hal etib bulindi» — deb e'lon qilingan gayriilmiy xulosa asosida 1937 yilda xotin-qizlar bo'limlari tarqatib yuborilgan, davlat esa ishlab chiqarish va demografiya vazifalarini hal etishga kirisha boshlagan. Ayni shu yillarda ijtimoiy proteksionizm (lotincha — himoya, yashirish) g'oyasining shakllanishi oqibatida xotin-qizlar davlat siyosati sub'ektidan uning ob'ektiga aylangan. Bu esa pirovardida ayollarga munosabatda patriarxal tizimni qayta tiklagan.
3. 1960—1991 yillar. Bu davrda sovet davlati xotin-qizlar emansipatsiyasi borasida uz oldiga qo'ygan kup masalalarni oxirigacha etkaza olmadi. Xususan, uy xo'jaligini umumlashtirish g'oyasi, umumiy ovqatlanish hamda umumiy korxonalar qurish rejalari, maktabgacha tarbiya bolalar muassasalaridagi o'rinlarning etishmasligi shular jumlasidandir. Oiladagi vazifalar taqsimlanishida ham xotin-qizlar avvalgidek uz zimmasida ikki karra yukni ko'tarar, ishlab chiqarish sohasida esa, ular ilgarigidek ikkinchi darajali vazifalarni bajarishar edi. SHuningdek, partiya hisobotlarida ham xotin-qizlar holatini baholashda patriarxal yondashuv ko'proq eshitila boshlandi<sup>7</sup>.

Sovet hokimiyati davrida xotin – qizlarni “uy zindon”idan ozod qilish, ularni ishlab chiqarishga jalb qilish vositasida milliy urf-odatlariga zarba berishga harakat qilindi. Xotin – qizlar ta'limining “sovet modeli” xuddi shu maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan. Bu hozirgi davr tadqiqotlarida ham o'zining yetarlicha ifodasini topmoqda. N. Djurayeva Tat'yana Shurkoning “Sovet Qirg'izistonida sovet davrining dastlabki yillaridagi hujum (1918-1930) xotin – qizlar ozodligi tajriba – sinov sifatida” nomli ilmiy maqolasini tahlil etar ekan, sovetlar tomonidan ayollarni “ozod etish” loyihasi negizida ulardan ishchilar safini arzon ishchilar bilan tuldurish va shu asosda bolalar bog'chalari, tibbiyot muassasalari, ta'lim muassasalari orqali yangi ish o'rinlarini hosil qilibgina qolmasdan, bu tadbirlar sovetlar manfaatiga xizmat qilganligi, milliy o'ziga xoslikni inkor etish bilan birga harakatga nisbatan neokonservativ tendensiyalar yuzaga kelganligini ta'kidlaydi<sup>8</sup>.

**Ilmiy natija:** Sovetlarning sharq ayollarini “ozodlikka chiqarish” va ularni jamiyatning teng huquqli a'zolariga aylantirish maqsadi va shu maqsadda amalga oshirilgan tadbirlari tahlilidan qo'yidagi natijalar olindi. Sovet hukumati 20-yillarning ikkinchi yarmi va 30-yillarda o'zining siyosiy va iqtisodiy maqeni yanada mustahkamlash uchun harakat qilib, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida “madaniy inqilob” tadbiri bilan mafkuraviy ta'sirni kuchaytirib bordi. Ayniqsa, bu jarayon kishilar ongini o'zgartirishda muhim omil bo'lgan ta'limda, ilm va madaniyatda jiddiy tus oldi. Mustabid tuzum ma'muriy-buyruqbozlik usullari orqali “madaniy inqilob” yo'li bilan xalqning ilm-fan va ma'rifatga bo'lgan intilishini siyosiy manfaatlar tomon yo'naltirdi. Bolsheviklar tarbiyaning dastlabki va ta'sirchan o'chog'i bo'lgan xalq ta'limini birinchi kundanoq mafkura izmiga solish uchun

<sup>7</sup>Джўраева Н.Ўзбекистонда хотин- қизларга муносабат.( XX асрнинг 20-80 йиллари мисолида) Ўқув қўлланма. Тошкент.2013.-Б.6-7.

<sup>8</sup>Джўраева Н.Марказий Осиё тарихшунослигида хотин – қизларнинг ўрни ва роли масаласининг ўрганилиши.Ўтмишга назар.Тошкент.2020.9- сон, 3- жилд.-Б.24.



butun imkoniyatini ishga soldi. Maktablarda siyosiy tarbiyani yo'lga qo'yishga va uni takomillashtirib borishga e'tibor berildi<sup>9</sup>.

**Xulosa:** Ushbu tadqiqot ishidagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek ayollarini ta'lim jarayoniga jalb etish vositasida sovet hokimiyati bir qator maqsadlarni ko'zlaganligi aniqlandi. Jumladan, milliy urf-odat va an'analarga zarba berish va shu orqali o'zlikni unuttirish, o'zbek xotin – qizlaridan qishloq xujaligi va sanoat uchun arzon ishchi kuchi tayyorlash va hokazo. Sovet davri adabiyotlarida masala kommunistik mafko'ra no'qtai nazaridan talqin qilinib, sharq ayollari “zindondan” ozod qilinganligi uqtirildi. Biroq milliy odatlar, shariat qoidalari asosida yashayotgan Turkiston xalqlari buni hazm qilishi og'ir kechdi. SHu sababdan ham faol ayollar yovuz kuchlar qurboniga aylandi. Mustaqillik davri adabiyotlari muammoni xolisona yoritib, mazkur masala shoshma- shosharlik bilan amalga oshirilgan tadbir degan xulosani keltirib chiqardi. Masalaning nozik jihatlari, milliylik va urf – odatlarga asoslanganlik jihatlari inobatga oladigan bo'lsak, mavzo' yuzasidan yangi tadqiqotlar o'tkazish ehtiyojini yuzaga keltiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Джўраева Н. Ўзбекистонда хотин- қизларга муносабат. ( XX асрнинг 20-80 йиллари мисолида) Ўқув қўлланма. Тошкент.2013.-Б.6-7.
2. Джўраева Н.Марказий Осиё тарихшунослигида хотин – қизларнинг ўрни ва роли масаласининг ўрганилиши. Ўтмишга назар. Тошкент.2020.9- сон, 3- жилд.-Б.24.
3. Джўраева Н. Совет даврида хотин – қизларнинг маорифга жалб этилиши. Ўтмишга назар. Тошкент.2020.9- сон, 4- жилд.-Б.14.
4. Маттиев У.Б. XIX аср ўрталари - XX аср бошларида Туркистонда афғон фуқаролари тарихи. Диссертация автореферати. Самарқанд.2022.-Б.15.
5. Мирвалиев С., Шокирова Р. Ўзбек адиблари. Тошкент.2007.-Б.56.
6. Усмонов Қ., Содиқов М., Бурхонова С., Ўзбекистон тарихи. Тошкент.2005.-Б.266.
7. Фарғона водийси янги тадқиқотларда. Фарғона.2012.-Б.292.

---

<sup>9</sup>Шу манба.-Б.8.